

**TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNI XALQARO-HUQUQIY
TARTIBGA SOLISH**

Sa'diyev Nodirjon G'olibjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

E-mail: nodirbekadiyev@gmail.com

Tel: +998 90 2710518

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15679871>

Annotatsiya. Mazkur ishda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishning xalqaro-huquqiy jihatlari tahlil qilinadi. Dengiz, daryo, ko'l va yer osti suvlarining bir nechta davlatlar hududidan oqib o'tishi ularni boshqarishda xalqaro hamkorlik va o'zaro kelishuvlarni taqozo etadi. Mazkur maqolada BMTning "Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha" konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlar asosida suv resurslarini adolatli va oqilona taqsimlash prinsiplariga e'tibor qaratilishi zarurdir. Shuningdek, maqola Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik tajribalari va mayjud muammolar o'r ganilib, transchegaraviy suvlar bo'yicha samarali xalqaro-huquqiy va mintaqaviy mexanizmlarni ishlab chiqish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Transchegaraviy suvlar, xalqaro huquq, suv resurslari, adolatli foydalanish, barqaror rivojlanish, suvdan foydalanish prinsiplari, Markaziy Osiyo, suv diplomatiyasi, transchegaraviy hamkorlik, ekologik xavfsizlik, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish, xalqaro bitimlar, mintaqaviy hamkorlik.

**МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД**

Аннотация. В данной работе рассматриваются международно-правовые аспекты использования трансграничных водных ресурсов. Моря, реки, озёра и подземные воды, проходящие через территории нескольких государств, требуют международного сотрудничества и взаимных соглашений для эффективного управления. В статье подчёркивается необходимость справедливого и рационального распределения водных ресурсов на основе Конвенции ООН «О защите и использовании трансграничных водотоков и международных озёр» и других международных документов. Также исследуются примеры сотрудничества и существующие проблемы между государствами Центральной Азии, предлагаются эффективные международно-правовые и региональные механизмы регулирования трансграничных водных ресурсов.

Ключевые слова: Трансграничные воды, международное право, водные ресурсы, справедливое использование, устойчивое развитие, принципы водопользования, Центральная Азия, водная дипломатия, трансграничное сотрудничество, экологическая безопасность, интегрированное управление водными ресурсами, международные соглашения, региональное сотрудничество.

**INTERNATIONAL LEGAL REGULATION OF THE USE OF TRANSBOUNDARY
WATERS**

Abstract. This paper analyzes the international legal aspects of the use of transboundary water resources. The fact that seas, rivers, lakes, and groundwater flow through the territories of multiple states necessitates international cooperation and mutual agreements in their

management. The article emphasizes the importance of fair and rational allocation of water resources based on the UN Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes, along with other international legal instruments. In addition, the paper explores the experiences of cooperation and existing challenges among the Central Asian states and proposes the development of effective international legal and regional mechanisms for managing transboundary waters.

Keywords: *Transboundary waters, international law, water resources, equitable use, sustainable development, principles of water use, Central Asia, water diplomacy, transboundary cooperation, environmental security, integrated water resources management, international agreements, regional cooperation.*

Kirish

Hozirgi zamonda sanoat va ilm-fan taraqqiyotining jadal kechishi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu o‘zgarishlar natijasida global miqyosda bir qator ekologik muammolar yuzaga chiqdi. Ularning “global” deb atalishiga sabab shundaki, bunday ekologik muammolar butun Yer yuzidagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bilan bir qatorda barcha tirik organizmlarning yashash sharoitlariga bevosita ta’sir o‘tkazmoqda.

Bu ekologik muammolar dastlab mahalliy yoki mintaqaviy ko‘rinishda boshlangan bo‘lsada, vaqt o‘tishi bilan ularning global tus olishi kuzatilmoqda. Chunki ular Yer yuzidagi turli hududlarda kechayotgan hayotiy jarayonlarga, shu jumladan, tirik mavjudotlarning tabiiy yashash muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Global ekologik muammolardan biri sifatida transchegaraviy suv muammolari alohida ajralib turadi. Ular bugungi kunda jahon miqyosida suv bilan bog‘liq umumiyligi inqiroz holatlarini keltirib chiqarmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslariga oid muammolar tobora keskinlashib bormoqda va bu kelajakda geosiyosiy qarama-qarshiliklar, hatto harbiy mojarolarni yuzaga keltirishi mumkinligi haqida xavotirlar mavjud. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda sanoatlashtirish jarayonlari tez sur’atlar bilan olib borilmoqda, aholining muhim qismi esa qishloq joylardan shaharlarga ko‘chib o‘tmoqda. Bu holat esa yirik sanoat obyektlari va shahar aholisi uchun suv ta’midotida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mintaqalarda mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanish o‘tgan asrning 1950–1960-yillarda izdan chiqqan bo‘lib, bu bugungi kunda mazkur resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari hozirgi vaqtida o‘z strategik yo‘nalishlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratgan bo‘lib, ularning asosiy vazifalaridan biri aholini va infratuzilmani tabiiy resurslar, ayniqsa suv bilan barqaror ta’minlashdan iboratdir.

Material va metodlar

Transchegaraviy suvlar - ikki yoki undan ortiq davlatlar tomonidan hududidan kesib o‘tadigan yoki joylashgan suv resurslaridir. Yer sayyorasi aholisining taxminan 40 foizi ikki yoki undan ortiq davlatlarni o‘z ichiga olgan daryo va ko‘l havzalari hududlarida yashaydi. Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan 263 ta transchegaraviy daryo va ko‘l havzalarining umumiyligi maydoni Yer yuzasining deyarli yarmidan ko‘pini egallaydi va global suv oqimining taxminan 60 foizini tashkil

etadi. Bunday havzalarda hududiy joylashgan jami 145 ta davlat mavjud bo‘lib, 30 ta davlat to‘liq ravishda transchegaraviy suv havzalarda joylashgan.

1980-yillardan beri suvning sifatiga va miqdoriga global bosimlar ortdi, bu hodisalar asosan aholining o‘sishi, suvgaga bo‘lgan talabning ortishi sabab bo‘lmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, hozirgi vaqtida 2,3 milliard odam suv tanqisligi yuzaga kelgan davlatlarda yashaydi, ulardan 733 millioni yuqori va jiddiy suv tanqisligi bilan yuzlashayotgan davlatlarda istiqomat qiladi. 2050-yilga kelib, 3,9 milliard odam (dunyo aholisining 40 foizi) suv tanqisligi kuchli bo‘lgan suv resurslari mavjud hududlarda istiqomat qilishadi.

Yer osti suvlari dunyo bo‘ylab ichimlik suvi ta’mnotinining deyarli yarmiga teng bo‘lib, qishloq aholisining suv ta’mnotinining aksariyat qismini tashkil etadi. Yer osti suvlari kamayib borayotgan nuqtalar dunyo bo‘ylab ko‘plab topiladi, bunday holatlari, qishloq xo‘jaligi uchun suv chiqarish va katta shaharlarni ta’minalash uchun intensiv yer osti suvlari ishlataladigan hududlarda ko‘proq uchraydi. Umuman olganda, yer osti suvlari omborlarining kamayishi barcha yer osti suvlarining 15 dan 25 foizigacha tashkil etadi.

Bundan tashqari, taxminan 2 milliard odam dunyo bo‘ylab yer osti suvlari bilan ta’minlangan, shu jumladan taxminan 300 ta transchegaraviy suv koni tizimlari mavjud. Dunyo bo‘ylab iqlim o‘zgarishi dunyoning transchegaraviy suv resurslarining miqdori va sifati, shuningdek, suv va drenaj infratuzilmasiga qo‘sishma bosimlar yaratadi. Kuchli yomg‘irlar bo‘lishi, Arktika va Antarktida muzliklarning tezroq erishi, to‘fonlar kuchayishi, qurg‘oqchilik davrlarining ko‘payishi va uzoq muddatli bo‘lishi, yer osti suvlarining saqlanishi va tiklanishidagi o‘zgarishlar hamda suv sifatining yomonlashuvi kiradi. Transchegaraviy suv resurslari, eski standartlar hamda samarasiz boshqaruv tufayli jiddiy zarar ko‘rmoqda. Milliy va transchegaraviy darajalarda, qishloq xo‘jaligi va chorvachilikni, shuningdek, iqlim, energiya, atrof-muhit, moliya, baliqchilik, o‘rmon xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, gumanitar masalalar, sanoat, konchilik, shaharlashish, rejalashtirish, sanitariya va turizm sohalarini o‘z ichiga olgan sektorlararo va vazirliklararo muvofiqlashtirish mexanizmlari transchegaraviy suv resurslarini barqaror boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Biroq, davlatlarning 50 foizi o‘zlarining milliy darajadagi suv resurslarini boshqarish bo‘yicha sektorlararo muvofiqlashtirish uchun mexanizmlariga ega emasligi ko‘zga tashlanmoqda. Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish uchun huquqiy-iqtisodiy mexanizmlar mavjud bo‘lsa ham, ko‘plab davlatlar ularning amalga oshirilishida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Transchegaraviy suvlari turli davlatlar aholisini bog‘lab, dunyo bo‘ylab yuz millionlab odamlarning daromadlari va tirikchiligini ta’minalaydi. Barcha transchegaraviy suv resurslari jamiyatlar o‘rtasida gidrologik, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqliklarni yaratadi. Ular iqtisodiy rivojlanish, qashshoqlikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur suv resurslari potensial ziddiyatlar va mojaro vujudga keltirishi mumkin bo‘lsada, hamkorlik qilish, mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun ham imkoniyatlar yaratadi. Aholi sonining o‘sishi, noto‘g‘ri boshqaruv siyosati va o‘zaro hamkorlikning yo‘qligi transchegaraviy suv manbalaridan barqaror foydalanishni agrar, sanoat, energetika, transport, suv ta’moti va sanitariya kabi sohalarda to‘xtatib qo‘yadi. Kamaygan va ifloslangan transchegaraviy suv manbalari aholi orasida notinchlikni keltirib chiqarishi, davlatlarda ichki hamda tashqi mojarolarni yuzaga keltirishi mumkin. Markaziy Osiyo respublikalarini Amudaryo va Sirdaryo

daryolari hamda ularning irmoqlari bo'yicha umumiy transchegaraviy suv resurslari birlashtirib turadi. Mintaqadagi transchegaraviy suv resurslari va daryo havzalarini boshqarish masalasi ushu davlatlar mustaqillikka erishgach, darhol murakkab vazifaga aylandi. 1991-yilda Sovet Ittifoqining qulashidan so'ng ilgari mavjud bo'lgan suv resurslarini taqsimlash tizimi ham barbob bo'ldi. Shundan beri, transchegaraviy suv resurslaridan barqaror foydalanish Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhim vazifalardan biriga aylandi. Bundan tashqari, bugungi kunda bu mamlakatlar ko'pincha cheklangan suv resurslari muammosiga duch kelmoqda. Aholi soni va iqtisodiyotning o'sishi natijasida suvga bo'lgan talabning ortishi, shuningdek, raqobatning kuchayishi suv bilan bog'liq mojarolar xavfini oshirdi. Mintaqadagi suv muammolari faqatgina suv tanqisligi bilan emas, balki siyosiy, geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liqdir. Bu omillar ayniqsa Sovet Ittifoqi qulaganidan keyin yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Nazariy jihatdan muvofiqligiga qaramay, Markaziy Osiyodagi gidrotexnika tizimi bo'yicha ko'plab kelishmovchiliklar respublikalar o'rtasida tanglik manbaiga aylandi. Sovet Ittifoqi davrida Markaziy Osiyoda sug'oriladigan dehqonchilik har bir mamlakat uchun milliy ustuvor yo'naliш bo'lgan bo'lsa, gidrotexnikaga oid masalalar ikkinchi darajali ahamiyatga ega edi. Ammo Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng, avvalgi ustuvorliklar faqat Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston tomonidan saqlab qolindi. Biroq Tojikiston va Qирг'изистонда esa suv resurslarining asosiy manbayiga aylandi. Bu esa mintaqaning transchegaraviy suvlariga oid vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Natijada, mintaqada suv tizimining nomutanosib taqsimlanishiga olib keldi, chunki Sovet Ittifoqi qulashidan keyin ilgari markazlashgan boshqaruv ostida bo'lgan suv tizimi butunlay izdan chiqdi. Sovet Ittifoqining qulashidan so'ng, markazlashgan qaror qabul qilish tizimi bekor qilindi va respublikalar transchegaraviy suvlarni o'zaro taqsimlashni o'zları hal qilishlariga majbur bo'ldilar. Biroq bu respublikalar uchun oson vazifa bo'lmadi, chunki ularning milliy manfaatlari qabul qilinayotgan qarorlarning natijasini belgilab berdi. Shunday qilib, ushu davlatlar o'rtasida bir vaqtning o'zida ham tanqis, ham hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan resursdan qanday foydalanishi borasidagi qarama-qarshi qarashlar zudlik bilan siyosiy darajaga olib chiqadi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida milliy masala sifatida qaralayotgan transchegaraviy suv masalasi respublikalar o'rtasidagi siyosiy bosim vositasiga aylanib qoldi. Suv tanqisligi butun dunyo bo'yab dolzarb muammo hisoblanadi, biroq bu holat ayniqsa Markaziy Osiyoda keskin tus olgan. Vaziyat nafaqat global iqlim o'zgarishlari ta'siri bilan, balki mavjud suv resurslarining haddan tashqari ekspluatatsiyasi bilan ham yanada og'irlashmoqda. Bundan tashqari, mintaqadagi suv resurslari respublikalar bo'yab notekis taqsimlangan hamda har xil maqsadlarda foydalanilmoqda, bu esa suvdan oqilona foydalanish masalalarini yanada murakkablashtiradi. Hududdagi davlatlarni Amudaryo va Sirdaryo havzalari bo'yicha joylashuv xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga Tojikiston va Qирг'изистон kiradi, bu davlatlar suvga boy bo'lib, ikki asosiy daryo - Sirdaryo va Amudaryoning yuqori oqimida joylashgan. Ular suvdan asosan qish mavsumida gidroenergiya ishlab chiqarish uchun foydalanadilar. Ikkinci guruhga esa pastki oqimda joylashgan Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmaniston kiradi. Bu davlatlar suvdan asosan yozgi mavsumda sug'oriladigan dehqonchilikda foydalanadilar. Qирг'изистон va Tojikiston - yuqori oqimdagи davlatlar - mo'l-ko'l suv resurslariga ega bo'lsalarda, uglevodorod energiya manbalari yetishmovchiligi muammosiga duch kelishadi. Aksincha, pastki oqimdagи Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmaniston katta miqdorda uglevodorod

zaxiralariga ega, biroq yetarli suv resurslariga ega emas. Bu holatda bir qarama-qarshilik yuzaga keladi: yuqori oqimdagagi davlatlarning gidroenergetika ustuvorligi pastki oqimdagagi davlatlarning agrar manfaatlariga zid keladi. Birinchi guruh ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun elektr energiyasiga muhtoj bo'lsa, ikkinchi guruh sug'oriladigan qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun suvgaga ehtiyoj sezadi.

Markaziy Osiyodagi transchegaraviy suvlarning hajmi va oqim tartibida yuzaga kelgan har qanday o'zgarish nafaqat ekologik muvozanatning tiklab bo'lmas darajada buzilishiga, balki suv taqsimotiga ta'sir ko'rsatadigan va uni jiddiy siyosiy muammolarga aylantirishi mumkin bo'lgan keskinlik manbasiga aylanmoqda. Mintaqada integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish va energetika sohasida samarali chora-tadbirlarni qabul qilishga to'sqinlik qilayotgan asosiy to'siqlar – bu respublikalar o'rtasida suv muammolarini hal etish borasidagi siyosiy yondashuvlardagi nomuvofiqliklardir. Transchegaraviy suvlar atrofida mavjud bo'lgan tanglikni yumshatish uchun davlatlararo murosaga kelish va o'zaro manfaatli umumiy asosga erishish muhim ahamiyatga ega. Biroq davlatlararo hamkorlik va kooperatsiya milliy manfaatlarning ustuvorligi bilan cheklab qo'yilgan, bu esa o'z navbatida davlatlarning bir-birini o'zaro tushunish imkoniyatlarini kamaytiradi va transchegaraviy suv resurslari bilan bog'liq masalalarni hal qilinmasligiga olib keladi. Aslida esa bu sohada hamkorlik uchun keng imkoniyatlar mavjud. Boshqa tomondan, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishni tartibga soluvchi aniq va majburiy qonunchilikning yo'qligi o'zaro manfaatli yechimlarga erishish yo'lini yanada murakkablashtiradi. Transchegaraviy daryolarning suv resurslarini taqsimlashni tartibga solishga mo'ljallangan hukumatlararo bitimlar ko'pincha milliy manfaatlarning ustuvorligi sababli to'liq amalga oshmaydi va transchegaraviy suv resurslariniadolatli taqsimlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda yetarlicha samara bermaydi. Shu bois, suvdan foydalanishda barcha Markaziy Osiyo respublikalarining manfaatlarini inobatga oluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish ushbu davlatlar uchun dolzarb ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Tojikiston va Qirg'iziston suv resurslariga boy bo'lib, Sirdaryo va Amudaryoning yuqori oqimida joylashgan. Ular suvdan asosan qish oylarida gidroelektr energiyasini ishlab chiqarish uchun foydalanadilar. Pastki oqimdagagi davlatlar – Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston esa suvdan asosan yoz oylarida sug'oriladigan dehqonchilik uchun foydalanadilar. Bu esa mintaqada suv taqsimoti masalasini potensial tanglik va kelishmovchilik manbaiga aylantiradi. Sobiq Sovet Ittifoqi parchalangach, Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishganida, transchegaraviy suv resurslarini taqsimlash muammosi yanada keskinlashdi. Transchegaraviy suvlarni taqsimlashdagi kelishmovchiliklarning asosiy sababi Markaziy Osiyo davlatlarining har xil maqsad va milliy manfaatlariga borib taqaladi. Ba'zi davlatlar suvdan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanishga muhtoj bo'lsa, boshqalar uchun gidroenergetika ishlab chiqarish ustuvor yo'naliш hisoblanadi.

Tadqiqot natijalar

Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish jarayoni turli sohalar, tashkilotlar va manfaatdor tomonlarni o'z ichiga oladi, ular vaqt davomida ketma-ketlikda va miqyos jihatidan, transchegaraviy havza darajasidagi tashkilotlar, milliy darajadagi tegishli vazirliklar va organlar hamda mahalliy boshqaruv organlari, jumladan, viloyatlar, shaharlar va jamoalar kabi faoliyat yuritadi. Shundan kelib chiqib, transchegaraviy hamkorlik transchegaraviy suv havzalarini

boshqarish bilan bog‘liq murakkablik va qiyinchiliklarni samarali hal etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Transchegaraviy suv resurslarini muvafaqqiyatli boshqarishni ta’minalash maqsadida sohalararo va manfaatdor tomonlar o‘rtasida ichki va tashqi muvofiqlashtirish, izchil siyosiy yondashuvlar hamda integratsiyalashgan rejalshtirish zarur. Har bir davlatda tegishli sektorlar vakillari va transchegaraviy suv resurslarining havza hududlarida yashovchilar tomonidan samarali muvofiqlashtirilgan holda faoliyat yuritishi, shuningdek, barcha muhim manfaatdor tomonlar jalb etilishi lozim. Manfaatdor tomonlar va ularning faoliyat qatlamlari to‘liq xaritalashtirilishi zarur bo‘lib, bu ularning aniq vakolatlari, vazifalari va majburiyatlarini aniqlash hamda umumiy suv resurslarini boshqarish bo‘yicha qo‘shma reja va choralarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishdagi rollarini belgilashga xizmat qiladi. To‘liq manfaatdor tomonlarning jalb etilishi va ishtiroki transchegaraviy hamkorlikning samarali amalga oshirilishida asosiy omil hisoblanadi. Har bir manfaatdor tomon xavf baholash jarayonining barcha bosqichlarida, xavfni aniqlashdan tortib rejalshtirish va ustuvor xavfni kamaytirish choralarini tanlashgacha - qaror qabul qilish jarayoniga bevosita jalb qilinishi zarur. Bundan tashqari, jamoalar darajasidagi xavfni kamaytirish choralarini faqat jamoalar ushbu choralarni ishlab chiqish (shu jumladan xavf baholash) va amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etsa, samarali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, transchegaraviy hamda barcha darajadagi sohalararo hamkorlik xavfni kamaytirish choralarini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishi mumkin bo‘lsa-da, hamkorlikdan kelib chiqadigan sinergiyalarni rivojlantirish orqali rejalar va dasturlarning samaradorligi hamda natijadorligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi va yanada mustahkam xavfni kamaytirish faoliyatini ta’minalaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, transchegaraviy suv hamkorligi energiya va oziq-ovqat ishlab chiqarishni oshirishga, ofatlarga nisbatan chidamlilikni kuchaytirishga va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Transchegaraviy suv resurslarini to‘g‘ri va samarali boshqarish bevosita transchegaraviy suv resurslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy aktlarga bog‘liqidir. Mazkur aktlar transchegaraviy suvlarni boshqarish bo‘yicha huquqiy tamoyillar va mexanizmlarni belgilab, har bir davlat uchun ma’lum bir majburiyatlarni vujudga keltiradi. Markaziy Osiyo davlatlarining har biri qo‘shti davlatlar bilan umumiy transchegaraviy suv havzalarini boshqarishda aniq huquqiy va institutsional majburiyatlarga ega bo‘lgan bir qator xalqaro normalarni bajarib kelmoqda. Bir tomondan, ushbu xalqaro aktlar Markaziy Osiyoda mavjud transchegaraviy suv resurslarini boshqarishga katta ta’sir ko‘rsatsa, boshqa tomondan esa mazkur aktlar transchegaraviy suv resurslarini boshqarish bo‘yicha o‘zaro manfaatli va samarali boshqaruvni amalga oshira olmayapti.

Xulosa

Mamlakatimiz ekologik barqarorlikni ta’minalash, aholining sog‘lom va xavfsiz tabiiy muhitda yashashi uchun shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, mavjud ekologik muammolarni hal etish hamda ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishida qator qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular orqali ekologik xavfsizlikni ta’minalash, tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va iqlim o‘zgarishlariga moslashuv imkoniyatlari yaratilyapti. Yurtimizda qabul qilingan konsepsiylar asosida ekologik barqarorlikni mustahkamlash, yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish, uglerod chiqindilarini kamaytirish

va barqaror rivojlanishga erishish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralar ham kuchaytirilgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan global iqlim o‘zgarishlarini bugungi kundagi eng dolzarb global muammolardan biri sifatida e’tirof etib, bu jarayonning salbiy ta’siri tobora yaqqol sezilayotganini ta’kidlamoqda. Ana shu omillarni hisobga olgan holda, suv resurslaridan foydalanishga oid huquqiy va ma’muriy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati dolzarb masalaga aylangan.

Suv siyosatining asosiy maqsadi - mavjud suv resurslaridan oqilona va maksimal darajada samarali foydalanishni ta’minlashdir. Buning uchun suv siyosati barcha darajalarda, milliy, havzaviy, mintaqaviy va mahalliy miqyosda ko‘rib chiqilishi, har bir hududning hozirgi va kelajakdagi suv ehtiyojlari, demografik o‘sish sur’atlari bilan uyg‘un holda boshqarilishi lozim. Shu bilan birga, texnik va moliyaviy imkoniyatlar, resurslar va ularni boshqarish tizimi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Har bir darajada mavjud suv va moliyaviy resurslardan foydalanish bo‘yicha kompleks rejalshtirish va samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Milliy siyosat bilan bir qatorda, suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, transchegaraviy suv havzalaridan foydalanishda qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda ishslash, xalqaro konvensiyalar va kelishuvlar asosida suv resurslariniadolatli va barqaror taqsimlashga erishish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dasturlar, texnik va moliyaviy ko‘maklar, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish orqali suv siyosatini yanada takomillashtirish mumkin.

Suv to‘g‘risidagi qonunchilikning to‘liq va aniq tushunilishi, suv siyosatini amalga oshirishda zarur vositalarning yaratilishi, hamda qonunchilik asosida suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun qulay sharotlarning yaratilishi muhim hisoblanadi. Aks holda, suv resurslaridan samarali foydalanishga oid qonunchilikdagi bo‘shliqlar va ziddiyatlar bu jarayonga to‘sinqinlik qilishi mumkin.

Shu sababli, suvgaga oid mavjud talablarni to‘g‘ri boshqarish, suv ta’mnoti va undan foydalanish bo‘yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta’minalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Patricia Wouters, Huiping Chen, James E. Nickum: Transboundary Water Cooperation: Principles, Practice and Prospects for China and Its Neighbours // Routledge, 2018 – 396 p.
2. Convention: Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes// United Nations, Helsinki.
3. Internation Law Association: Berlin Rules on Water Resources // Berlin, 2004 – 28 p.